

## BANKLARDA KREDIT AMALIYOTI

**Yusupov Jasurbek Jumanazarovich**

*Biznesni rivojlantirish banki" ATB Kredit mahsulotlarini boshqarish boshqarmasi bosh menejeri*

### ARTICLE INFO.

**Kalit sozlar:** Tijorat bank, debit, kredit, kredit hisobvarag'i, bxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (BHXS), kapital, zaxira fondi, hisob varaq, Kredit operatsiyalari, shartnoma, balans.

### Annotatsiya

Banklar tomonidan kredit berish yanada kengayib bormoqda. Ular davr taraqqiyoti bilan shahdam qadam tashlash maqsadida hamda raqobat kurashiga bardosh bera olishda o'z xizmat turlarini ko'paytirishlari va rivojlantirishlari shart. Bu o'z navbatida tijorat banklari xususiy kapitalining milliy va xalqaro standartlar darajasiga yaqinlashtirish bo'yicha ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqotlar olib borilishini taqazo etmoqda. Kredit operatsiyalarini amalga oshirishda muammoli kreditlarning yuzaga kelishi, ularning buxgalteriya hisobini xalqaro standartlari talablari asosida tartibga solishni zaruriyat qilib qo'yimoqda.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Kredit deganda ma'lum bir muddatga haq to'lash sharti bilan boshqa shaxslar tomonidan vaqtincha bo'sh pul mablag'larini qarzga olish va o'z egalarining qo'lga qaytarish natijasida yuzaga keladigan munosabatlar tushuniladi. Bank boshqa odamlarning pullarini yig'ib, o'z nomidan qarzga beradi. Bu yerda kredit munosabatlari ikki sub'ekt o'rtasida yuzaga keladi: biri pul egasi, ya'ni qarz beruvchi (kreditor), ikkinchisi esa - pulga muhtoj bo'lganlar, ya'ni qarz oluvchi (qarzdor). Kredit munosabatlari amalga oshishi uchun ularning zarur elementlari, ya'ni kredit ob'ekti va predmeti bo'lishi kerak. Kreditlash sub'ektlari har xil bo'lib, bularga korxonalar, firmalar, tashkilotlar, davlat va aholining turli toifalari kiradi. Qarz predmeti har qanday pul emas, balki faqat vaqtincha bo'sh turgan, egasi tomonidan foydalanilmaydigan va qarzga berilishi mumkin bo'lgan puldir.

Bo'sh pul uch xil bo'ladi:

- tadbirkorlar yoki katta puldorlar qo'lidagi pul, yani pul kapitali;
- aholi qo'lidagi pul ertami kech ehtiyojni qondirish uchun to'plangan pul, egasi qo'lida kapital emas, balki istemolini qondirish vositasi;
- Davlat ixtiyoridagi pul. Bu ham pul kapitali (davlat korxonasi uchun), ham umumiy istemol pulidir.

Aytilgan turdagi bo'sh pullar ssuda (qarz) fondini tashkil etadi va uning yuzaga kelishi obektiv tarzda muqarrardir. Qarzga berilgan pul, yani kredit harakatini quyidagicha ifodalash mumkin:

Kb → Ko → Ki → Kfk

Bu yerda:

Kb – kredit berildi;

Ko – kredit olindi;

Ki – kredit ishlatildi;

Kfk – kredit foiz (%) bilan qaytarildi.

Shu tarzda bo'sh pullar kreditning asosiy sharti-qarz uchun haq to'lashni taminlaydi. Bu haq qarz qilingan summaga nisbatan foiz hisobida olinganidan u qarz prorenti deb yuritiladi. Qarz prorenti pul bozorida amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Valyuta bozorini liberallashtirish bo'yicha birinchi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilinganidan ko'p o'tmay, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston pul-kredit siyosatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi va Kompleksda 2017-2021-yillarda pul-kredit siyosatini rivojlantirish va inflyatsiyani targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha chora-tadbirlar tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyatini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi qarori qabul qilingani bu boradagi navbatdagi muhim qadamlardan biri bo'ldi.

Kredit to'rt xil funksiyani bajaradi.

Birinchi, pulga tenglashtirilgan to'lov vositalarini (masalan, veksel, chek, sertifikat va b.) yuzaga chiqarib, ularni xo'jalik oborotiga jalb qiladi. (veksel qarz majburiyatnomasi, chek bankdagi pulni talab qiluvchi hujjat, sertifikat pul to'langanligi, qarz berilganligini tasdiqlovchi hujjat). Kredit tufayli pul muomalasi doirasiga veksel, chek, kredit kartochkalari kabi vositalar kiritilib, naqd pulli hisob-kitoblarni nakd pulsiz operatsiyalar bilan almashtiradi. Bu esa ichki va xalqaro bozordagi iqtisodiy munosabatlar mexanizmni osonlashtiradi va tezlashtiradi.

Ikkinchidan, qarz berish orqali pul mablag'larini turli tarmoqlar o'rtasida qayta taqsimlash bilan ishlab chiqarish resurslarining ko'chib turishini taminlaydi. Qayta taqsimlash funksiyasi yordamida korxonalar, tashkilotlar, shaxsiy va davlat sektorining bo'sh pul mablag'lari, daromadlari ssuda kapitaliga aylantiriladi va vaqtincha foydalanishga muayyan to'lov asosida beriladi. Bu funksiya yordamida ishlab chiqarishdagi mutanosibliklar (proporsiyalar) va pul kapitali harakati boshqarilib turiladi.

Uchinchidan, qarz berish tufayli muomala xarajatlarini tejash imkoniyati tug'iladi. Malumki, kredit vujudga kelish davridan boshlab haqiqiy pullar (oltin, kumush) o'rnini kredit pullari veksellar, banknotalar, cheklar bajarib kelgan. Ayniqsa, oltin (kumush)ning monetar roli va uning yo'qolib borganligi tufayli kreditning bu funksiyasi yordamida naqd pulsiz hisob-kitsblarni rivojlantirib, uning tezkorligi va kam xarajatliligini taminlab kelmoqda. Bu funksiya ssuda kapitaliga aylangan qarzning muomalada bo'lish vaqtining tejalishi uning ishlab chiqarishda bo'lish vaqtini oshiradi va ishlab chiqarishni kengaytirishga, foydaning ortishiga olib keladi. Xo'jalik subektlari pul mablag'larining kelib tushishi va ishlatilishi o'rtasidagi vaqt bo'yicha farq faqatgina ortiqcha mablag'lar hajmini emas, balki moliyaviy mablag'larning etishmovchiligini ham aniqlab beradi. Shu sababli korxonalar va tashkilotlarning o'z aylanma mablag'larining vaqtinchalik yetishmovchiligini to'ldirish uchun ssudalarni olish keng tarqalib boryapti.

To'rtinchidan, qarz berish, qarzni undirish vositalari orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga erishiladi. Masalan, bank krediti hisobidan qurilayotgan qo'shma yoki xorijiy korxonalar respublikaning va jahon bozorining ehtiyojini qondirsa, bu hol kreditning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi funksiyasining ijobiy amal qilganligidan dalolat beradi. Va aksincha, kredit xalq xo'jaligiga turli yo'llar bilan asossiz ravishda ko'p berilsa va oqibatda pul massasi ko'payib, milliy pul qadrsizlansa yoki olingan xalqaro kreditlardan samarali foydalanilmasa va mamlakat o'zining boshqa daromad manbalari, masalan, oltinini sotish hisobidan kreditni qaytarsa, bu hol kredit funksiyasining salbiy amal qilganligidan dalolat beradi.

Ko'pgina banklar tomonidan beriladigan qurilish uchun mo'ljallangan kredit keng tarqalgan

kreditlardan biri bo'lib, bu kredit asosan uy, bino, inshoot va ofislar qurish uchun olinadi. Bunday kredit ko'chmas mulk uchun ishlatilishiga qaramasdan, u qisqa muddatg'a beriladi. Kreditni oluvchilar uni ishchilarni yollashga, vaqtinchalik kerak bo'ladigan asbob-uskunalarni ijaraga olish, qurilish materiallari hamda bino va inshootlarni qurish uchun erlarni sotib olishga ishlatadilar. Rivojlangan davlatlarda mijoz bankdan olgan kreditni boshqa kreditoridan yoki moliya tashkilotidan mijozning garov mulki hisobiga qoplashi majburiyatini bankka takdim qilmaguncha, bank bunday mijozlarga, yani quruvchi va loyihachilarga kredit bermaydi.

Davlatga tegishli va xususiy qimmatli qog'ozlar savdosi bilan shug'ullanuvchi dilerlarga ularni sotish yoki muddati tugaganda hisobdan chiqargunga qadar yangilarini sotib olish va mavjud qimmatli qog'ozlar portfelini qo'llab-quvvatlash uchun qisqa muddatli kreditlar kerak bo'ladi. Bunday kreditlarni banklar ko'pincha hech qanday to'sqinlik beradilar, chunki bunday kreditlar yuqori sifatli hisoblanib, ular asosan davlatning qimmatli qog'ozlari bilan taminlangan bo'ladi. Bundan tashqari, bunday kreditlar juda qisqa muddatga beriladi (bir kundan bir necha kungacha). Agar sharoit yomonlashsa, bank kreditni qaytarib oladi yoki foiz stavkasini ko'taradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bank kreditlari buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aniq hamda to'g'ri aks ettirish davrida aks ettiriladi. Kredit ajratilgandan so'ng kredit monitoringi o'tkazilishi ustidan nazoratni kuchaytirish. Berilgan kreditlarni monitoring qilish orqali kreditdan qanday maqsadda foydalanilayotganligi va qay darajada samaradorlikka erishilayotganligini aniqlash mumkin. Banklarda kreditni berish va undirish jarayoni yuzasidan amalga oshiriladigan ishlarni ommaga yetkazish. Yana shu yo'l bilan shubhali va umidsiz ssudalarning tasniflangan kredit hajmidagi salmog'ini qisqartirish. Banklarda yuqori likvidlikka ega bo'lgan garov obyektlaridan foydalanishni kuchaytirish. Kreditlarni undirishni kuchaytirish maqsadida bank xodimlari va mijoz o'rtasidagi aloqadorlikni kuchaytirish va mijoz o'rtasida doimiy ravishda ma'lumot olib turishni tashkil etish. Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlar hajmi yil o'sib bormoqda va bu mamlakatimiz iqtisodiyotini o'sishiga juda katta ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan bir qatorda banklar o'zlariga katta xatarni ham olishmoqda. O'ylaymizki, bildirilgan takliflarimizni amaliyotga tadbiiq etilishi, tom ma'noda tijorat banklarining kredit riski va bu orqali bankning moliyaviy ahvoriga salbiy ta'sirini kamaytiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston sharoitida mustaqil pul-kredit siyosatini yuritish imkoniyati 1994 yilda milliy valyutaning muomalaga kiritilganidan so'ng paydo bo'ldi.
2. Mayexl N., Monetar siyosatni qo'llash: Rivojlanayotgan monetar rejimlarga ega mamlakatlardagi operatsion masalalar (XVF).
3. Abdikarimova D.R. Banklar garov ta'minotini baholash zarurligi va asosiy tamoyillari.// «Moliya» jurnali. – Toshkent, 2015. - №4. – B. 58-63. (08.00.00; №12)
4. Abdikarimova D.R. O'zbekistonda baholash institutining shakllanish va rivojlanish bosqichlari.// «Moliya» jurnali. – Toshkent, 2016. - №1. – B. 93-98. (08.00.00; №12).
5. Abdikarimova D.R. Xorij amaliyotida bank kreditlari bo'yicha garovni baholashning asosiy tamoyillari va ta'minot turlari.//«Бизнес- эксперт» jurnali. – Toshkent, 2016. - №3. – B. 29-33. (08.00.00; №3)
6. Abdikarimova D.R. Bank kreditlari garov ta'minotini baholash. Monografiya. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2016. – 168 b.